



Olimpiada topshiriqlari (tuman bosqichi) Davlat va huquq asoslari fani 10-sinf

22.10.2024

1-qism: Har bir topshiriq 0,9 balldan baholanadi

1. Biometrik pasportning amal qilish muddati necha yil?

- A) 5 yil B) 15 yil C) 10 yil D) muddat belgilanmagan

2. Xususiy mulkdor bo'lish huquqi qaysi huquq turiga kiradi?

- A) shaxsiy B) siyosiy C) madaniy D) iqtisodiy

3. Fuqarolarning davlat va jamoatchilik faoliyatini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalarni ifodalovchi murojaati bu ...

- A) taklif B) ariza C) shikoyat D) huquq

4. Huquqbuzarning qonun yoki huquq normalari belgilab qo'ygan majburiy talablarini buzishi ...

- A) Ayblilik B) Huquqbuzarlik C) Ijtimoiy xavflilik D) Huquqqa zidlik

5. Intizomiy jazo turlari Mehnat kodeksining nechanchi moddasida belgilangan?

- A) 178-moddasida B) 180-moddasida C) 181-moddasida D) 197-moddasida

6. O'zbekiston qachon SHHTga a'zo bo'lgan?

- A) 1992-yil 2-mart B) 1993-yil 29-oktabr C) 2002-yil 21-fevral D) 2001-yil 15-iyun

7. Davlat organlari, muassasalari yoki xalq vakilligiga ariza, shikoyatlar bilan murojaat qilish qanday huquq turiga kiradi?

- A) madaniy B) shaxsiy C) siyosiy huquqlar D) ijtimoiy

8. Necha yoshga to'lguncha, voyaga yetmagan bolaning familiyasi ma'lum maqsadda ota-onasi birgalikda qabul qilgan qarori bilan o'zgartirishi mumkin?

- A) 13 yosh B) 21 yosh C) 16 yosh D) 18 yosh

9. Saylovda qanday modellardan foydalaniladi?

- A) Mojaritar B) Proporsional C) Umumiylik prinsipi D) Mojaritar va proporsional

10. Mehnat qonunchiligiga ko'ra ish vaqti 16 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan bolalarga haftasiga qancha soat ishlashga ruxsat etilgan?

- A) 24 soat B) 30 soat C) 32 soat D) 36 soat

2-qism: Har bir topshiriq 1,7 balldan baholanadi

11. Qonunchilik palatasi qo'mitalaridan biri tomonidan qonun loyihasining oldindan ko'rib chiqilishi qonunchilik jarayonining nechanchi bosqichi hisoblanadi?

- A) 3-bosqich
B) 2-bosqich
C) 4-bosqich
D) 1-bosqich





Olimpiada topshiriqlari (tuman bosqichi) Davlat va huquq asoslari fani 10-sinf

22.10.2024

12. Yolg'izlik halokatga olib keladi. Inson o'z shaxsiy talablari jihatidan boshqalardan ajralgan holda yashay olmaydi. Jamoa a'zolarining barchasi uchun majburiy huquqiy qonunlar zarur bo'ladi. Zero, inson o'ziga kerakli narsalarni faqat jamiyat yordamida qo'lga kiritishi mumkin. Yuqoridagi fikr muallifini aniqlang.

- A) Abu Ali ibn Sino B) Amir Temur C) Shan Yan D) Abu Nasr Forobiy

13. – xalqaro muloqot jarayonida davlatlararo munosabatlarni tartibga solib turuvchi yuridik qoidalar majmuyi. Quyidagi javoblar ichidan nuqtalar o'rniga mos keladigan so'zni belgilang.

- A) Xalqaro huquq B) Tashqi siyosat C) Xalqaro shartnoma D) Xalqaro majburiyat

14. Huquqning ijtimoiy munosabatlarga ta'sir ko'rsatishga yordamlashadigan yo'llari, usullari, vositalarining yig'indisi nima deb ataladi?

- A) Huquqiy munosabat
B) Huquqiy tartibga solish
C) Huquq tarmoqlari
D) Yuridik takomillashuv

15. Mushtarak manfaatlar asosida fuqarolarning o'z xohishlari natijasida vujudga kelgan tuzilma – bu ...

- A) kasaba uyushmasi B) siyosiy partiyalar C) ijtimoiy harakatlar D) jamoat birlashmalari

16. Taqdimnoma kechiktirilmay ko'rib chiqilishi shart va ko'rilgan chora-tadbirlar haqida qancha vaqt ichida prokurorga yozma ravishda ma'lum qilinishi kerak?

- A) 1 oy ichida B) 15 kun ichida C) 3 kun ichida D) 10 kun ichida

17. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni joriy qilish kimning vakolatiga kiradi?

- A) Qonunchilik palatasining vakolati
B) Senatning vakolati
C) Qonunchilik palatasi va senatning birgalikdagi vakolati
D) Prezidentning vakolati

18. Voyaga yetmaganlarga nisbatan majburiy jamoat ishlari qancha muddatga tayinlanishi mumkin?

- A) voyaga yetmaganlarga nisbatan 60 soatdan 332 soatgacha
B) faqat mehnatga layoqatli voyaga yetmaganlarga nisbatan 60 soatdan 260 soatgacha
C) faqat mehnatga layoqatli voyaga yetmaganlarga nisbatan 60 soatdan 230 soatgacha
D) faqat mehnatga layoqatli voyaga yetmaganlarga nisbatan 60 soatdan 240 soatgacha

19. Mansabdor shaxs yoki fuqaro tomonidan qonun buzulishining mazmunidan kelib chiqqan holda prokuror jinoiy ish qo'zg'atish to'g'risida, ma'muriy javobgarlik ishlab chiqish to'g'risida nima chiqaradi?

- A) Ariza B) Ogohlantirish C) Taqdimnoma D) Qaror

20. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida nimalar oliy qadriyat hisoblanadi?

- A) Inson hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmat
B) Davlat manfaatlar ustunligi
C) Davlat va jamiyat munosabatlari
D) Qonun ustuvorligi



Fan olimpiadalarini o'tkazish va iqtidorli o'quvchilarni saralash boshqarmasi



Olimpiada topshiriqlari (tuman bosqichi) Davlat va huquq asoslari fani 10-sinf

22.10.2024

3-qism: Har bir topshiriq 2,4 balldan baholanadi

21. Mulkdor o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulkka o'z xohishicha egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi. Mol-mulkdan foydalanish atrof-muhitga zarar yetkazmasligi, boshqa shaxslarning, jamiyat va davlatning huquqlarini hamda qonuniy manfaatlarini buzmasligi kerak. Ushbu jumla O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining nechanchi moddasida aks etgan?

- A) 70-moddasida
- B) 69-moddasida
- C) 66-moddasida
- D) 51-moddasida

22. Unitar davlatlar to'g'ri berilgan javobni toping?

- A) Buyuk Britaniya, Fransiya, Yaponiya, Italiya, Norvegiya, Ispaniya, Portugaliya, Gretsiya
- B) Yaponiya, Finlandiya, Misr, O'zbekiston, Shveysariya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Italiya
- C) Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, Norvegiya, Ispaniya, Portugaliya, Gretsiya, Avstriya, Argentina
- D) Yaponiya, Finlandiya, Misr, O'zbekiston, Fransiya, Italiya, Norvegiya

23. Etatik davlat belgilarini aniqlang.

- A) Huquqning ustuvorligi
- B) Inson huquqlari va erkinliklarining ta'minlanishi va himoyalaniishi
- C) Davlat iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlarni va hatto fuqarolarning shaxsiy hayotini ham o'z boshqaruvi ta'siriga olishga intiladi
- D) Davlat va fuqaroning bir-birlari oldida o'zaro mas'uliyati

24. Necha yoshdan boshlab voyaga yetmagan o'spirin mustaqil chetga chiqishga oid notarial tasdiqlangan, otalari roziligi bo'lgan taqdirda xorijga kattalarning hamrohligisiz chiqishlari mumkin?

- A) 15-18 yoshgacha
- B) 15-16 yoshgacha
- C) 16-17 yoshgacha
- D) 16-19 yoshgacha

25. Adliya vaziri haqida berilgan to'g'ri ma'lumotlarni aniqlang.

1. Hukumat a'zosi hisoblanadi; 2. Oliy Majlis Senati taqdimiga binoan Prezident tomonidan tayinlandi; 3. Vazirlar Mahkamasining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi; 4. Vazirlar Mahkamasining taqdimiga binoan Bosh vazir tomonidan tayinlanadi

- A) 1, 3
- B) 1, 2
- C) 1, 4
- D) 2

6. Muayyan maqsadlarga erishish (mamlakatlarning birgalikdagi mudofaasi, bojxona ishlarini, tashqi savdo aloqalarini tashkillashtirish va hokazo) uchun birlashgan suveren davlatlar muvaqqat ittifoqi qanday nomlanadi?

- A) Unitar





Olimpiada topshiriqlari (tuman bosqichi) Davlat va huquq asoslari fani 10-sinf

22.10.2024

- B) Federatsiya
- C) Davlat tuzilishi shakli
- D) Konfederatsiya

27. Sud organlarining asosiy maqsadi yozilgan qatorni belgilang.

- A) inson huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamiyatda qonuniylik va adolatni qaror toptirish
- B) O'zbekiston Respublikasi qonunlari va Oliy Majlis palatasi qarorlarini ko'rib chiqish
- C) odamlar o'rtasidagi nizo va mojarolarni davlatda qabul qilingan qonunlarni amaliyotda qo'llash asosida zo'ravonlik ishlatmasdan hal qilishida mujassamlashgan
- D) Fuqaroviy, jinoiy ishlarni va ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni birlamchi ko'rib chiqish

28. Sudya o'z lavozimiga mos kelmaydigan faoliyat bilan shug'ullangan hollarda ...

- A) sudyalarning tegishli malaka kollegiyasi qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudyalarning Kengashi taqdimoti bo'yicha sudyalarning jazolanadilar
- B) sudya majburiy xarakterdagi tibbiy choralarga tortilishi mumkin
- C) sud qarori bilan noma'lum sabablarga ko'ra sudya bo'lmay turgan deb tan olinishi ham mumkin
- D) Uning vakolatlari to'xtatib turiladi

29. Maktabning sinfdan sinfga ko'chirish imtihonlarini topshirish vaqtida, ishlayotgan o'quvchiga, o'rtacha ish haqi saqlangan holda necha kun ishdan ozod qilish belgilab qo'yilishi mumkin?

- A) 2 kundan 4 kungacha
- B) 4 kundan 6 kungacha
- C) 6 kundan 8 kungacha
- D) 8 kundan 10 kungacha

30. Fikrlar mualliflari to'g'ri berilgan javobni aniqlang.

1. "Platon menga do'st, lekin haqiqat qimmatlidir".
 2. "Agar sen inson bo'lsang, xalq ehtiyoji to'g'risida bosh qotirmaydiganni inson deb atamagin".
 3. "Barcha g'alabalar o'z ustingdan g'alaba qozonishdan boshlanadi. Bu eng oliy hokimiyat. O'z ehtirolarining quliga aylanish – eng qo'rqinchli qullikdir".
 4. "Mehnat – g'alaba, shon-shuhrat va boylik kaliti".
 5. "Agar davlat qonunlarga tayanmasa, u o'zining shon-shuhrati va buyukligini uzoq vaqt saqlay olmaydi".
 6. "Bekorchiilik va maishatparastlik nafaqat odobsizlikni tug'diradi, ular bir vaqtda bemorlikka ham sabab bo'ladi".
- a) Abu Ali ibn Sino; b) o'zbek xalq maqoli; c) Amir Temur; d) Seneka; e) Alisher Navoiy; j) Aristotel.
- A) 1-j, 2-e, 3-d, 4-b, 5-c, 6-a
 - B) 1-d, 2-c, 3-j, 4-b, 5-e, 6-a
 - C) 1-d, 2-e, 3-j, 4-b, 5-c, 6-a
 - D) 1-j, 2-e, 3-a, 4-b, 5-c, 6-d

